



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

Auditorlik Firmalarining Professional Xizmatlari

Turumova Dildora Abdumannonovna

Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası o'qituvchisi
dildoraturumova1985@gmail.com

Xudoyberdiyeva Mahliyo Ikrom qizi

Jizzax politexnika instituti "Kibersport" fakulteti talabasi

Annotatsiya:

Hozirda mamlakat miqyosida auditorlik professional xizmatlari keng tarqalmoqda. Buni yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi auditorlik firmalarida tajribalar olib borilyapti va ushbu maqolada shular to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlari: auditorlik tekshiruvlari, auditorlik tashkilotlari, auditorlik firmalari, auditorlik professional xizmatlari, auditorlik xizmati xulosasi, buxgalteriya hisobi, soliq solish.

Ma'lumki, har qanday voqea, hodisa, buyum qaysi zamonda va makonda paydo bo'lishidan qat'iy nazar ma'lum zaruriyat tufayli yuzaga keladi. Auditga oid manbalarda ta'kidlanishicha, uni quyidagi shart-sharoitlar keltirib chiqargan:

- Axborot etkazib beruvchilar (ma'muriyat) bilan axborotlardan foydalanuvchilar (davlat organlari, banklar, aktsiyadorlar, kreditorlar) manfaatlarining mos kelmasligi, natijada, ular o'rtasida ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganida ma'muriyat tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar berilishi;
- Noto'g'ri axborotlarga asoslangan holda xo'jalik qarorlarining qabul qilinishi natijasida noqulay iqtisodiy ahvolga tushib qolinishi yoki inqirozga yuz tutilishi;
- Iqtisodiy axborotlarning haqqoniyligini tasdiqlash uchun zarur maxsus bilimlarga ehtiyoj;
- Axborotlardan foydalanuvchilarda ma'lumotlarni bevosita baholash va sifatini aniqlash uchun maxsus malaka, vaqt va materiallarning etishmasligi va h. k.

Mana shu muammolarni hal qilishga yordam beradigan auditorlik xizmatlari shakllana boshladi. Uning asosiy vazifasi axborotlardan foydalanuvchilarga taqdim qilinadigan hisobotlar to'g'risida xolis fikr-mulohazalar bildirishdir. Auditorlar etarli bilim va tajribaga, shuningdek, buxgalteriya hisobi hujjatlari va asoslovchi ma'lumotlarni olish huquqiga ega bo'lganliklari uchun bu vazifani malakali darajada bajaradilar. Bundan tashqari, ular korxonaga ma'muriyatiga bo'ysunmaydigan va

uning tazyiqlaridan holidirlar.

Auditorlik tekshiruvlari ishlab chiqarishni rejalashtirish va tashkil etish, korxonadagi tartib, mehnat va texnologik intizomni, tovar-moddiy zahiralarning omborlar va boshqa saqlash joylaridagi hisobi, mulklarning saqlanishi, hisob- kitoblar holati va korxonada moliya-xo'jalik faoliyati hamda uning natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan boshqa ko'plab holatlarni qamrab oladi. Shuning uchun auditorlik hisobotida korxonada moliya-xo'jalik faoliyati va uning natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, hamda hisob ma'lumotlari va hisobot ko'rsatkichlari ishonchligini pasaytirishiga olib keladigan, mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil etishdagi katta kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar berilishi lozim.

Bu kompaniya, korxonada, tashkilot va boshqalarning moliya-xo'jalik faoliyati holatini xolis tekshiruvchi firmalar. Bu firmalarning xizmatchilari belgilangan tartibda auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun huquqi bo'lgan va auditorlik kasbkor ro'yxati (reyestri)ga kiritilgan mutaxassislar bo'lib, auditorlar deb ataladi. Auditorlik xizmati xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan auditorlik firmalari o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Bunday firmalar Auditorlik xizmatini bajarish uchun tegishli kompaniya, korxonada va tashkilotlar faoliyatini nazorat qiladigan davlat organlari (O'zbekistonda Adliya, Moliya vazirliklari)dan maxsus ruxsatnoma (litsenziya) oladilar. Auditorlik xizmatining asosiy vazifasi tekshirilayotgan korxonaning moliyaviy ahvoli to'g'risida xolis xulosa berishdan iborat. Bu xulosa ushbu korxonaning faoliyati to'g'risidagi yillik hisobotda shu korxonaning rasmiy balansida hamda foyda va zarari hisoblari bilan birgalikda qonun bilan belgilangan tartibda e'lon qilinadi. Auditorlik xizmati xulosasi ijobiy yoki salbiy bo'lishidan qat'i nazar korxonaning moliyaviy holatini tasdiklovchi mustaqil hujjat hisoblanadi. Auditorlik xizmati nazorat ishlari bilan birga maslahat xizmatlarini ham bajaradi.

PROFESSIONAL XIZMATLAR KO'RSATISH TARTIBI

1. Professional xizmatlar auditorlik tashkiloti bilan ushbu xizmatlar buyurtmachisi o'rtasida tuziladigan professional xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma asosida ko'rsatiladi.
2. Auditor shartnomani bajarayotganda auditor bilan xo'jalik yurituvchi subyekt (buyurtmachi) va zarurat bo'lganda istalgan uchinchi tomonlar bilan kelishilgan tartib-taomillarni (amallarni) o'tkazadi va ko'rsatilgan professional xizmatlar natijalari to'g'risida asoslangan xulosalar bilan hisobot taqdim etadi.
3. Auditor ko'rsatilgan professional xizmatlar natijalari uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.
4. Xo'jalik yurituvchi subyekt (buyurtmachi) ko'rsatilgan professional xizmatlar natijalari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari bo'yicha o'z xulosalarini chiqarishga haqlidir.
5. Hisobot, professional xizmatlar ko'rsatish shartnomasining shartlariga muvofiq hajmda va muddatlarda professional xizmatlar buyurtmachisiga taqdim etiladi.

PROFESSIONAL XIZMATLAR RO'YXATI

Auditorlik tashkiloti quyidagi professional xizmatlarni ko'rsatishi mumkin:

a) buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish;

boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish;

moliyaviy hisobni tashkil etish, qayta tiklash va yuritish;

buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish (kompyuterlashtirish);

buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish bilan bog'liq boshqa xizmatlar;

b) moliyaviy hisobotni tuzish;

v) milliy moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga o'tkazish;

g) xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish:

moliyaviy holatni tahlil qilish;

likvidlikni tahlil qilish;

to'lov qobiliyatini tahlil qilish;

moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish bilan bog'liq boshqa xizmatlar;

d) buxgalteriya hisobi, soliq solish, rejalashtirish, menejment va moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari bo'yicha konsalting xizmati:

texnik-iqtisodiy asoslanmalarni (TIA) tayyorlash, investitsiya loyihalarini va biznes- ns rejalarni ishlab chiqish va baholash;

buxgalteriya hisobi va soliq solish masalalari bo'yicha maslahatlar;

moliyaviy menejment bo'yicha maslahatlar;

marketing tadqiqotlarini o'tkazish;

unumdorlik va samaradorlikni baholash maqsadlarida xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining tartib-taomillari va uslublarini tahlil qilish;

moliya-xo'jalik faoliyati sohasidagi boshqa konsalting xizmatlari;

e) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar va deklaratsiyalarni tuzish:

soliq hisobini tashkil etish va yuritish;

soliq organlarining tekshiruv dalolatnomalari bo'yicha e'tirozlar tayyorlash;

soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar va deklaratsiyalarni tuzish;

soliq hisobi va soliq solish bilan bog'liq boshqa xizmatlar;

g) boshqa xizmatlar:

auditorlik faoliyati bilan bog'liq sohada tadqiqotlar, seminarlar, konferensiyalar, izlanishlar o'tkazish va ularning natijalarini, shu jumladan bosma ko'rinishda, tarqatish;

buxgalteriya hisobi, audit, moliya-xo'jalik faoliyati tahlili va soliq solish bo'yicha belgilangan tartibda o'quv qo'llanmalari, o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlash.

PROFESSIONAL XIZMATLAR UCHUN JAVOBGARLIK

1. Professional xizmatlarni sifatsiz ko'rsatganligi uchun auditorlik tashkiloti qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

2. Ko'rsatilgan professional xizmatlar natijalari to'g'risidagi hisobotda berilgan axborotlar maxfiy hisoblanadi. Buyurtmachining roziligisiz ushbu axborotlarni e'lon qilgan aybdor shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Auditorlik tashkiloti yuqori sifatli professional xizmat ko'rsatishga erishishi uchun o'z faoliyatini shunday tashkil etishi kerak-ki, uning ish bajarish yoki xizmat ko'rsatishda qatnashayotgan xodimlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

halollik va haqqoniylik;

professional kompetentlilik va zarur tajriba hamda malakaga egalik;

professional axloq normalariga rioya qilish va belgilangan standartlar (shu jumladan korxonadagi ham) talablarini bajarish;

o'z professional majburiyatlarini bajarish chog'ida xodimlarga ma'lum bo'lgan axborotlarni maxfiy (sir) tutish printsiptiga rioya qilish va hokazo.

Mijoz-korxonada rahbariyati shartnoma asosida professional xizmatlar ko'rsatayotgan auditorlar faoliyati ustidan joriy nazorat o'rnatishi va ko'rsatiladigan xizmatlar sifatiga ta'sir etuvchi muammolar yuzaga kelganda ularga ma'lum qilishi mumkin.

Auditorlik tashkilotining xodimi (xodimlari) mijoz hohishiga ko'ra bevosita buyurtmachining ish joyida ishlab, u (buyurtmachi) auditorlarni zarur uskunalar bilan ta'minlash, ish joyini tashkil etish va boshqa majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Agar mijoz-korxonada tashkiliy texnikalarni sotib olish uchun etarli mablag'ga ega bo'lmasa yoki uni sotib olishni maqsadga muvofiq emas deb hisoblasa, hamda auditorlik tashkiloti xodimlari mijozning ish joyida ishlashlari uchun shart-sharoitlar bo'lmasa, u holda buyurtmachi dastlabki hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etish bo'yicha majburiyatlarni to'liq zimmasiga oladi. Dastlabki hujjatlarni auditorlik tashkilotiga etkazib berish, hujjatlarning saqlani-shini ta'minlash, kompyuter yordamida hujjatlarga ishlov berish, analitik va sintetik hisob registrlarini yuritish, dastlabki hujjatlar va tuzulgan buxgalteriya hisobi registrlarini mijozga etkazib berish va boshqalarga doir ishlarni auditorlik tashkiloti o'z zimmasiga oladi.

Professional xizmat bayonidan ko'rinib turibdiki, buyurtmachi-korxonada, buxgalteriya xizmati yo'q, natijada hisobot tuzish, soliq deklaratsiyalarini to'lg'azish, buxgalteriya hisobotlari va soliq deklaratsiyalarini davlat soliq inspeksiyasi (DSI) va boshqa muassasalarda himoya qilishni topshirish mumkin bo'lgan malakali hodimi ham yo'q. Shuning uchun qoidaga ko'ra, mijoz-korxonada buxgalterlik (moliyaviy) hisobotni tuzish, buxgalterlik (moliyaviy) hisobotlar va soliq deklaratsiyalarini davlat soliq inspeksiyasi (DSI) da himoya qilish kabi xizmat turlarini ham shartnomaga kiritishi mumkin.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) 2021 y. 25 fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ- 615-son Qaroriga ilova «Auditorlik tashkilotlari to'g'risida Nizom».
3. Tulaxodjaeva M.M., Ilxomov SH.I., Axmadjonov K.B. va boshqalar. Audit, Darslik. 1 jild. - T.: NORMA, 2008.-320 b.
4. 5-son AMS «Auditor ishi sifatini nazorat qilish» O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 811-sonli 03.09.1999 yil ro'yxatga olingan 5,7-bandlari
5. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Xalq so'zi. 2002 yil 30 avgust.
6. Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son Qaroriga 2-ilova «Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risida» Nizom.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ- 615-son Qaroriga ilova «Auditorlik tashkilotlari to'g'risida» Nizom.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ- 615-son Qarori – “Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida”.
9. Bichkova S.M. Audit: vaziyat, namunalar, testlar. M.: Moliya va statistika, 1999 yil.
10. Vasilevich I.P. Sbornik zach po auditu. -M.: «INFRA-M», 1999 yil.